



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'rtasida ilmiy va akademik hamkorlik sohasida

O'ZARO ANGLASHUV MEMORANDUMI

2026-yil "___"-may

Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o'rinlarda **"Markaziy bank"** deb nomlanadi) hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (keyingi o'rinlarda **"JIDU"** deb nomlanadi), keyingi o'rinlarda birgalikda **"Tomonlar"** deb nomlanadi, ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish borasida o'zaro manfaatlarni hisobga olib, quyidagilarni o'z ichiga olgan ushbu **Anglashuv Memorandumini** (keyingi o'rinlarda **"Memorandum"**) tuzdilar:

1. Memorandum maqsadi

1.1. Ushbu Memorandumning maqsadi Tomonlar o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaat asosida ilmiy tadqiqot hamkorligini rivojlantirishdan iborat.

1.2. Tomonlar ushbu Memorandumni amalga oshirish jarayonida o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.

2. Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari

Tomonlar hamkorlikni quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirishga kelishdilar:

2.1. Tadqiqotlar sohasida hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini birgalikda amalga oshirish hamda ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish maqsadida Markaziy bank xodimlarining barcha hamkorlikdagi tadqiqot loyihalarida faol ishtirok etishi va ilmiy maqolalar mualliflari sifatida qatnashishi nazarda tutiladi.

2.2. Axborot resurslari va ilmiy ma'lumotlar bazalaridan birgalikda foydalanish, o'quv adabiyotlari hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish va ular bilan almashish, shuningdek o'zaro-manfaatli mavzularda qo'shma nashrlarni tayyorlash.

2.3. Markaziy bank mutaxassislari tomonidan JIDUning xalqaro iqtisodiyot va menejment hamda jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarini zamonaviy ilmiy va amaliy talablarga moslashtirish yuzasidan tavsiyalar berish.



2.4. Markaziy bankning tajribali mutaxassislarini JIDU talabalarining ilmiy ishlariga maslahatchi sifatida biriktirish.

2.5. JIDU talabalari uchun seminar-treninglar va mahorat darslarini o'tkazish.

2.6. Qo'shma ilmiy-amaliy va ilmiy-uslubiy konferensiyalar, forumlar, seminarlar hamda boshqa tadbirlarni tashkil etish.

2.7. Markaziy bankning yetakchi mutaxassislarini JIDUga mehmon-o'qituvchi sifatida jalb qilish hamda talabalarni pul-kredit siyosati, makroiqtisodiy tahlil, prognozlashtirish va modellashtirish masalalari bo'yicha amaliy bilimlar bilan ta'minlash.

2.8. JIDUning bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlari bitiruvchilari uchun Markaziy bankda amaliyot o'tash imkoniyatini yaratish. Har bir o'quv yili uchun amaliyot o'rinlarini taqdim etish (talabalar soni oldindan kelishiladi).

2.9. JIDUning jahon iqtisodiyoti hamda menejment ixtisosligi bo'yicha doktorantura talabalarining ilmiy ishlarini Markaziy bank uchun dolzarb bo'lgan mavzularga bog'lash va ularning Markaziy bankda ishlash va amaliyot o'tashlariga sharoit yaratish.

2.10. Markaziy bank buyurtmasi bo'yicha xodimlarni JIDUda tadqiqot metodlari, ma'lumotlar ilmi, makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot bo'yicha maxsus tashkil etiladigan kurslarda o'qitish.

2.11. Innovatsion va startap ekotizimini rivojlantirish doirasida tomonlarning vakolatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib qo'shma startap tashabbuslarini ilgari surish, ularni inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari orqali rivojlantirish.

2.12. Startap loyihalariga moliyaviy va tashkiliy ko'mak ko'rsatish hamda istiqbolli startap loyihalarini tijoratlashirish va investitsiyalar jalb etish masalalarida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.

2.13. Tomonlar uchun manfaatli bo'lgan boshqa yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish.

3. O'zaro hamkorlik shakllari

3.1. Hamkorlik sohasiga oid ma'lumotlarni almashish.

3.2. Tomonlarning faoliyati hamda o'zaro manfaatli masalalar bo'yicha maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish.



3.3. Memorandum maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan o'zaro faoliyatlarni rejalashtirish, jumladan dasturlarni ishlab chiqish.

3.4. Tomonlar o'rtasidagi hamkorlik maqsadlariga erishish uchun shartnomalar (kelishuvlar) tuzish.

4. Hamkorlikni tashkil etish

4.1. Ushbu Memorandumga qo'shimcha ravishda Tomonlar hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha dastur imzolashlari mumkin. Mazkur dastur Tomonlar tomonidan imzolanganidan so'ng, Memorandumning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

4.2. Tomonlar har yili Memorandumni amalga oshirish jarayonini ko'rib chiqadilar va o'zaro manfaatli hamkorlikning qo'shimcha yo'nalishlari va shakllarini belgilaydilar.

5. Axborotdan foydalanish va maxfiylik

5.1. Tomonlar qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalarida foydalaniladigan barcha ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasini ta'minlash uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda tadqiqot faoliyatida foydalanilgan barcha ma'lumotlarni har qanday usulda uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

5.2. Tadqiqot natijalari asosida olingan xulosalar hamda barcha ma'lumotlar Tomonlarning o'zaro roziligisiz ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida va boshqa manbalarda e'lon qilinmaydi. Ushbu talablarga rioya etilmasligi amaldagi huquqiy me'yorlarga muvofiq javobgarlikka olib keladi.

6. Moliyalashtirish masalalari

6.1. Ushbu Memorandum doirasida amalga oshiriladigan har qanday dastur va rejalar Tomonlar tomonidan oldindan kelishib olinadi hamda ularning bajarilishi Tomonlarning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida o'zaro muhokama va kelishuv asosida belgilanadi.

7. Amal qilish muddati

7.1. Ushbu Memorandum 5 yil muddatga tuziladi va Tomonlar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Agar Memorandum muddati tugashidan kamida 30 (o'ttiz) taqvim kuni oldin Tomonlardan hech biri ushbu Memorandumni bekor qilish niyatini bildirmasa yoki yangi Memorandum bilan almashtirilmasa, Memorandum har yili avtomatik ravishda uzaytirilgan hisoblanadi.



7.2. Har bir Tomon ushbu Memorandumni bir tomonlama muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega bo'lib, buning uchun boshqa Tomonni bekor qilish rejalashtirilgan sanadan kamida 6 (olti) oy oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning aniq shakllari alohida shartnomalar yoki kelishuvlar orqali belgilanadi va ular Tomonlar faoliyatining barcha jihatlari bo'yicha o'zaro manfaatlarini inobatga oladi.

8.2. Tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar hamda ushbu Memorandum shart va qoidalarining turlicha talqin etilishi bilan bog'liq masalalar muzokaralar va maslahatlashuvlar yo'li bilan hal etiladi.

8.3. Ushbu Memorandumga o'zgartirishlar Tomonlarning yozma roziligi bilan, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan va imzolangan holda kiritiladi.

8.4. Mazkur Memorandum o'zbek tilida ikki nusxada tuzilgan va imzolangan bo'lib, har bir Tomonda ushbu hujjatning bittadan asl nusxasi saqlanadi.

**O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki raisi**


T.A. Ishmetov

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti rektori**


S.S. Safoyev